“SUV KERAK”
loyihasi ommaviy ofertasi

©“suv_kerak” 2025y.

OMMAVIY OFERTA

“suv kerak” loyihasi tizimi xizmatlaridan foydalanish to‘g‘risidagi shartnoma

1. Umumiy qoidalar va tariflar

1.1. Ushbu hujjat «HISOB» MChJ (STIR: 302055033, yuridik manzil: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, I. Karimov ko‘chasi, 293-uy), keyingi o‘rinlarda “Kompaniya” deb ataladi, tomonidan jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarga qaratilgan ommaviy oferta (keyinchalik – “Oferta”), bo‘lib, “suv_kerak” loyihasi tizimi xizmatlaridan foydalanish shartlarini belgilaydi.

1.2. Ushbu Oferta quyida tariflangan shaxslar va xizmatlarga nisbatan qo‘llaniladi:

“suv_kerak” loyihasi tizimi (xizmati) – Kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan va qo‘llab-quvvatlanadigan axborot-texnologik platforma bo‘lib, mobil ilovalar, Telegram botlari va boshqa raqamli vositalar orqali suv yetkazib berish faoliyatini avtomatlashtirish, buyurtmalarni qabul qilish, logistika jarayonlarini tashkil etish va hisob-kitoblarni yuritishga xizmat qiladi.

Suv yetkazib beruvchi tadbirkor biznes egasi – “suv_kerak – Boss” turidagi foydalanuvchi, mustaqil tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida suv yetkazib berish faoliyatini amalga oshiradi, o‘z mijozlariga suv yetkazib berish xizmatini ko‘rsatadi. Keyingi o‘rinlarda “Suv yetkazib beruvchi Boss” deb ataladi.

Suv yetkazib beruvchi biznes menejeri – “suv_kerak – Meneger” turidagi foydalanuvchi, tegishli Suv yetkazib beruvchi Boss faoliyati doirasida buyurtmalarni, mijozlar bilan aloqani va logistik jarayonlarni boshqaradi. Keyingi o‘rinlarda “Suv yetkazib beruvchi Meneger” deb ataladi.

Suv yetkazib beruvchi biznes kureri – “suv_kerak – Courier” turidagi foydalanuvchi, Suv yetkazib beruvchi Boss nomidan mijozlarga suv yetkazib berishni amalga oshiradi. Keyingi o‘rinlarda “Suv yetkazib beruvchi kurer” deb ataladi.

Mijoz – “suv_kerak” Telegram boti, mobil ilovalar yoki boshqa kanallar orqali ichimlik suviga buyurtma beruvchi.

Suv yetkazish xizmati – Suv yetkazib beruvchi Boss (va uning Meneger hamda kurerlari) tomonidan mijozga suv sotish va manzilga yetkazib berish bo‘yicha amalga oshiriladigan xizmatlar majmuasi.

Tizim xizmati – Kompaniya tomonidan “suv_kerak” loyihasi tizimi asosida suv yetkazib beruvchi Boss, Meneger, kurer va mijoz o‘rtasida onlayn aloqa, buyurtmalarni qabul qilish, logistika, hisob-kitoblar va boshqa IT-funktsiyalarini taminlashga qaratilgan axborot-texnologik xizmatlar.

Tizim xizmati haqi – Kompaniya tomonidan Suv yetkazib beruvchi Boss’ga ko‘rsatiladigan Tizim xizmati uchun ushlanadigan to‘lov, ushbu ofertada ko‘rsatilgan qoidalar bo‘yicha hisoblanadi.

1.3. Kompaniya, Suv yetkazib beruvchi Boss, Suv yetkazib beruvchi Meneger, Suv yetkazib beruvchi kurer va Mijoz birgalikda “Foydalanuvchilar” deb atalishi mumkin.

1.4. “suv_kerak” loyihasi tizimi xizmatlaridan foydalanish, oferta shartlarini qabul qilgan foydalanuvchi bilan Kompaniya o‘rtasida elektron shaklda tuzilgan xizmat ko‘rsatish shartnomasi kuchga kirganini anglatadi.

2. Oferta predmeti

2.1. Ushbu Ofertani qabul qilish orqali foydalanuvchi kompaniyadan “suv_kerak” loyihasi tizimi orqali tizim xizmatini olishga rozi bo‘ladi, kompaniya esa ushbu oferta shartlariga muvofiq tizim xizmatini ko‘rsatish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

2.2. Kompaniya:

Mijozlarga “suv_kerak” Telegram boti va mobil ilovalar orqali suv yetkazib beruvchi Boss’lardan suvga onlayn buyurtma berish imkoniyatini taqdim etadi;

Suv yetkazib beruvchi Boss, Meneger va kurerlar uchun buyurtmalarni qabul qilish, taqsimlash, yetkazib berishni rejalash va hisob-kitoblarni yuritish bo‘yicha axborot-texnologik infratuzilmani taqdim etadi;

onlayn va naqd to‘lov jarayonlarini texnik jihatdan integratsiya qilishga yordam beradi (Click, Payme va boshqa to‘lov tashkilotlari orqali).

2.3. Kompaniya suv yetkazish xizmati (suv sotish va yetkazib berish) bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotuvchi yoki ijrochi hisoblanmaydi. Suv yetkazish xizmati mijoz va tegishli suv yetkazib beruvchi Boss (uning Meneger va kurerlari orqali) o‘rtasida tuzilishi mumkin bo‘lgan alohida huquqiy munosabat hisoblanadi. Kompaniya ushbu munosabatlarda axborot-texnologik platforma vazifasini bajaradi.

3. Xizmat ko‘rsatish hududi

3.1. “suv_kerak” loyihasi tizimi xizmatlari, umumiy qoida tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab ko‘rsatiladi.

3.2. Aniq suv yetkazib beruvchi Boss qaysi shahar, tuman yoki hududda suv yetkazish xizmatini amalga oshirishini o‘zi belgilaydi. Mazkur malumotlar odatda “suv_kerak” ilovalari yoki Telegram bot interfeysida mijozga ko‘rsatiladi.

3.3. Kompaniya texnik yoki tashkiliy sabablarga ko‘ra ayrim hududlarda tizim xizmatini cheklash yoki vaqtincha to‘xtatishga haqli. Bunday holatlar haqida Kompaniya imkoniyat darajasida mijozlar va suv yetkazib beruvchi Boss’larni xabardor qilishga intiladi.

4. Foydalanuvchilar kategoriyalari va o‘zaro munosabatlar

4.1. Suv yetkazib beruvchi Boss
4.1.1. Suv yetkazib beruvchi Boss mustaqil tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida suv sotish va yetkazib berish faoliyatini amalga oshiradi va tegishli qonunchilik talablariga rioya etish uchun shaxsan javob beradi.

4.1.2. Suv yetkazib beruvchi Boss o‘zining “suv_kerak – Boss” ilovasi orqali suv narxlari, tara (bak) narxlari, aktsiyalar va boshqa tijorat shartlarini mustaqil belgilaydi va ularni o‘z vaqtida yangilab borish uchun javobgar hisoblanadi.

4.2. Suv yetkazib beruvchi Meneger va kurer
4.2.1. Suv yetkazib beruvchi Meneger va kurer tegishli suv yetkazib beruvchi Boss bilan o‘zaro munosabatlar asosida ishlaydi va mijozlarga ko‘rsatiladigan suv yetkazish xizmati sifatining belgilangan standartlarga mos bo‘lishi uchun o‘z zimmasiga majburiyat oladi.

4.2.2. Kompaniya Meneger va kurerlarning mehnat munosabatlari, soliq va boshqa majburiyatlari uchun javobgar emas; bunday munosabatlar to‘liq suv yetkazib beruvchi Boss masuliyati doirasida.

4.3. Mijoz
4.3.1. Mijoz “suv_kerak” Telegram boti yoki mobil ilovalari orqali suvga buyurtma berayotganda, o‘z manzili, kontakt raqami va boshqa zarur malumotlarni to‘g‘ri va aniq taqdim etishi shart.

4.3.2. Mijoz suvni qabul qilish uchun ko‘rsatilgan manzilda belgilangan vaqt oralig‘ida bo‘lish, kurer bilan aloqa qilish va o‘zining to‘lov majburiyatlarini bajarishga rozi.

4.4. Kompaniya, suv yetkazib beruvchi Boss, Meneger, kurer va mijoz o‘rtasidagi aniq huquq va majburiyatlar ushbu oferta, maxfiylik siyosati, ilova va botda ko‘rsatilgan qo‘shimcha qoidalar asosida shakllantiriladi.

5. Narxlar, valyuta va Tizim xizmati haqi

5.1. Barcha narxlar va hisob-kitoblar, umumiy qoida tariqasida, O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida – so‘mda amalga oshiriladi.

5.2. Suv narxi va tara (bak) narxi
5.2.1. Suv yetkazib beruvchi Boss “suv_kerak – Boss” ilovasidagi maxsus bo‘lim orqali suv narxlarini mustaqil belgilaydi. Narxlar diapozoni, aktsion narxlar, chegirmalar va boshqa tijorat shartlari suv yetkazib beruvchi Boss hal etadi va mos ravishda ilovada aks ettiriladi.

5.2.2. Tara (bak)ning sotilishi yoki sotilmasligi, shuningdek sotilgan taqdirda tara narxi ham suv yetkazib beruvchi Boss tomonidan “tara narxlarini belgilash” bo‘limi orqali mustaqil belgilanadi.

5.2.3. Kompaniya suv va tara narxlari uchun javobgar emas; Mijozga ko‘rsatilgan narxlar Suv yetkazib beruvchi Boss tomonidan belgilangan tijorat shartlari hisoblanadi.

5.3. Tizim xizmati haqi (Kompaniya foydasi)
5.3.1. Kompaniya suv yetkazib beruvchiga ko‘rsatayotgan tizim xizmati uchun quyidagi tartibda xizmat haqi (komissiya) oladi:
Bir kunda tarqatil(sotil)gan yoki yetkazib berilgan suvlar soni diapozoniga qarab quyidagicha xab bir tarqatil(sotil)gan yoki yetkazib berilgan suvlar soniga qarab komissiya olinadi:
1 tadan to 300 tagacha – 150 so‘mdan,

301 tadan to 1000 tagacha 100 so‘mdan,

1001 tadan to 3000 tagcha – 80 so‘mdan,

3001 tadan to 5000 tagacha – 60 so‘mdan,

5001 tadan yuqori diapozonda – 50 so‘mdan komissiya olinadi.

5.3.2. Tizim xizmati haqi suv yetkazib beruvchi Boss tomonidan “suv_kerak” orqali amalga oshirilgan suv sotish va suv yetkazish xizmati bo‘yicha qabul qilingan umumiy to‘lov summasidan (jami tushumdan) hisoblanadi. Hisoblash formulasi va amaldagi mexanizm (ushlangan, ayrim oylik hisob-kitob va h.k.) tizimda texnik tarzda amalga oshiriladi va suv yetkazib beruvchi Boss’ga tegishli interfeysda aks ettiriladi.

5.3.3. Kompaniya alohida aktsiya, reklamaviy kampaniya yoki “suv_kerak” loyihasi bo‘yicha ichki qarorlarga muvofiq, malum muddat davomida tizim xizmati haqini qisman yoki to‘liq undirmaslikka, 0 % qilib belgilashga yoki boshqa imtiyozli shartlarni joriy etishga haqli. Bunday hollarda tegishli malumotlar suv yetkazib beruvchi Boss’ga ilovalar, Telegram botlar yoki rasmiy kanallar orqali elon qilinadi.

5.3.4. Agar qonunchilikda soliqlar, majburiy to‘lovlar yoki boshqa yig‘imlar bo‘yicha alohida tartib belgilangan bo‘lsa, Kompaniya va suv yetkazib beruvchi Boss ushbu talablarga muvofiq harakat qilishlari shart.

6. To‘lov tartibi va to‘lovni qaytarish

6.1. To‘lov usullari
6.1.1. Mijoz quyidagi usullar orqali to‘lov amalga oshirish huquqiga ega:

yetkazib berish vaqtida naqd pul kurerga;

“suv_kerak” tizimiga integratsiya qilingan onlayn to‘lov tizimlari (masalan, Click, Payme va boshqa to‘lov tashkilotlar) orqali onlayn to‘lov.

6.1.2. Mavjud to‘lov usullari va ularning sharhlari ilovada, Telegram botda yoki boshqa interfeysda alohida ko‘rsatiladi. Kompaniya texnik yoki tijorat sabablarga ko‘ra ayrim to‘lov usullarini qo‘shish, o‘zgartirish yoki to‘xtatishga haqli.

6.2. To‘lov vaqti
6.2.1. To‘lov rejimi (oldindan to‘lov, yetkazib berilgandan keyin to‘lov va h.k.) suv yetkazib beruvchi Boss siyosatiga va konkret holatga qarab belgilanishi mumkin bo‘lib, mos ravishda interfeysda aks ettiriladi.

6.2.2. Mijoz to‘lovni tanlangan usul va shartlarga muvofiq, o‘z vaqtida amalga oshirishga majbur.

6.3. To‘lovni qaytarish siyosati
6.3.1. Umumiy qoida tariqasida, mijoz tomonidan amalga oshirilgan to‘lovlar qaytarilmaydi, agar amaldagi qonunchilikda yoki kompaniyaning alohida malum qarorlarida boshqacha holatlar nazarda tutilmagan bo‘lsa.

6.3.2. Agar suv yetkazish xizmati umuman ko‘rsatilmagan bo‘lsa (masalan, kurer belgilangan muddatda yetkazmadi va xizmat amalda ko‘rsatilmadi), mijozning qonuniy huquq va manfaatlarini hisobga olgan holda, kompaniya va suv yetkazib beruvchi Boss ushbu holatni alohida ko‘rib chiqadilar. Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lsa, to‘lovni qaytarish yoki boshqa kompensatsiya turi (keyingi buyurtmada hisobga olish va h.k.) qo‘llanilishi mumkin.

6.3.3. Mijoz tomonidan asossiz ravishda buyurtmani rad etish, manzilda bo‘lmaslik, kurerni qabul qilmaslik yoki boshqa sabablarga ko‘ra xizmatni amalga oshirishga to‘sqinlik qilingan holatlarda, Kompaniya va Suv yetkazib beruvchi Boss to‘lovni

qaytarmaslik va yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlarni mijoz zimmasiga yuklash huquqini saqlab qoladi, qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa.

6.4. To‘lov xavfsizligi va firibgarlikdan himoya

6.4.1. “Suv_kerak” tizimi orqali amalga oshiriladigan onlayn to‘lovlar bank va to‘lov tashkilotlari (Click, Payme, Uzum Bank va boshqalar) tomonidan taqdim etiladigan xavfsiz to‘lov infratuzilmasi orqali amalga oshiriladi.

6.4.2. Onlayn to‘lovlar jarayonida foydalanuvchi to‘lov kartasi ma’lumotlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli to‘lov tashkilotlari va bank tizimlari tomonidan qayta ishlanadi hamda “suv_kerak” tizimi ushbu ma’lumotlarni saqlamaydi va ularga to‘liq kirish imkoniga ega emas.

6.4.3. To‘lovlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida 3D Secure (3DS) texnologiyasidan foydalanilishi mumkin. Ushbu texnologiya foydalanuvchining bank kartasi orqali amalga oshirilayotgan to‘lovlarni qo‘shimcha tasdiqlash (SMS-kod, mobil ilova orqali tasdiqlash va boshqalar) orqali himoya qiladi.

6.4.4. Firibgarlik (fraud) holatlarini oldini olish maqsadida quyidagi choralar qo‘llanilishi mumkin:

- shubhali operatsiyalarni avtomatik aniqlash va vaqtincha bloklash;
- bir xil kartadan qisqa vaqt ichida takroriy urinishlarni cheklash;
- foydalanuvchi faoliyatini monitoring qilish va zarur hollarda qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazish;
- bank va to‘lov tashkilotlari tomonidan belgilangan xavfsizlik talablariga rioya etish.

6.4.5. Foydalanuvchi o‘zining to‘lov vositalari xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagilarga rioya qilishi lozim:

- bank kartasi ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik;
- SMS yoki 3D Secure tasdiqlash kodlarini boshqa shaxslarga bermaslik;
- faqat ishonchli qurilmalar va tarmoqlar orqali to‘lovlarni amalga oshirish.

6.4.6. Agar foydalanuvchi o‘z kartasi yoki hisobidan ruxsatsiz foydalanilgan deb hisoвлаca, darhol o‘z bankiga va to‘lov ташкилотига murojaat qilishi lozim.

6.4.7. Kompaniya va tizim firibgarlik alomatlari aniqlangan hollarda foydalanuvchining ayrim operatsiyalarini vaqtincha cheklash yoki to‘xtatish huquqiga ega.

7. Oferta aktsepti va shartnoma tuzilishi

7.1. Ushbu Oferta ommaviy oferta hisoblanadi va belgilangan tartibda foydalanuvchi tomonidan qabul qilingan paytdan boshlab, foydalanuvchi bilan kompaniya o‘rtasida ommaviy oferta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

7.2. Foydalanuvchi quyidagi harakatlardan biri yoki bir nechtasini amalga oshirishi orqali ushbu oferta shartlarini qabul qilgan (aktsept qilgan) deb hisoblanadi:

“suv_kerak” Telegram botini qo‘shish, ushbu botga kirish va u orqali ro‘yxatdan o‘tish;

“suv_kerak” mobil ilovalaridan (Boss, Meneger, Courier yoki Mijozga mo‘ljallangan ilova) foydalanish uchun ro‘yxatdan o‘tish;

“Buyurtmani tasdiqlash”, “Tasdiqlayman” yoki mos manodagi tugmalarni bosish orqali suvga buyurtma berish;

“suv_kerak” Tizimi orqali to‘lovni amalga oshirish.

7.3. Foydalanuvchi tomonidan oferta aktsepti amalga oshirilgan paytdan boshlab, foydalanuvchi ushbu oferta, maxfiylik siyosati va “suv_kerak” tizimida ko‘rsatilgan boshqa qoidalar bilan tanishgan va ularga to‘liq rozi ekanligini tasdiqlaydi.

7.4. Agar foydalanuvchi ushbu oferta shartlariga rozi bo‘lmasa, u “suv_kerak” Telegram boti va mobil ilovalaridan foydalanishni darhol to‘xtatishi lozim.

8. Taraflarning huquq va majburiyatlari

8.1. Umumiy qoida

8.1.1. Ushbu oferta doirasida kompaniya, suv yetkazib beruvchi Boss, suv yetkazib beruvchi Meneger, suv yetkazib beruvchi kurer va mijoz o‘z huquq va majburiyatlarini amaldagi qonunchilik, ushbu oferta va “suv_kerak” tizimida ko‘rsatilgan qoidalarga muvofiq amalga oshirishlari shart.

8.2. Kompaniyaning huquq va majburiyatlari

8.2.1. Kompaniya majburiyatlari:

“suv_kerak” loyihasi tizimi orqali tizim xizmatini ushbu oferta shartlariga muvofiq ko‘rsatish;

texnik imkoniyatlar doirasida tizimning barqaror ishlashini taminlashga intilish;

foydalanuvchilar shaxsiy malumotlarini maxfiylik siyosatiga va amaldagi qonunchilikka muvofiq qayta ishlash;

tizimda texnik nosozliklar yoki ishdagi buzilishlar aniqlanganda, ularni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish.

8.2.2. Kompaniya huquqlari:

tizim xizmatini yaxshilash, xavfsizlik va optimallashtirish maqsadlarida, tizim interfeysi, funktsional imkoniyatlar, tariflar va xizmatlarning ayrim shartlarini o‘zgartirish;

foydalanuvchi ushbu oferta, maxfiylik siyosati, qonun talablari yoki axloqiy (etik) qoidalarni qo‘pol ravishda buzgan taqdirda, uning tizimdan foydalanishini vaqtincha cheklash yoki to‘xtatish;

texnik, tashkiliy yoki huquqiy zarurat tug‘ilganda, tizimning ayrim qismlarini vaqtincha yopish, modernizatsiya qilish yoki funktsionalni cheklash.

8.2.3. Kompaniya suv yetkazish xizmati (suv sifati, tarkibi, saqlanishi, sanitariya talablariga mosligi) bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijrochi hisoblanmaydi va ushbu xizmat uchun bevosita javobgar emas. Bunday xizmatlar suv yetkazib beruvchi Boss tomonidan ko‘rsatiladi va bevosita javobgar.

8.3. Suv yetkazib beruvchi Boss’ning huquq va majburiyatlari

8.3.1. Suv yetkazib beruvchi Boss majburiyatlari:

amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda suv yetkazib berish faoliyatini amalga oshirish (gigiyena, sanitariya, sertifikatlash, litsenziyalash va boshqa talablarga rioya qilish);

sotilayotgan suvning tarkibi, sifati, xavfsizligi va uni tasdiqlovchi barcha sertifikatlar, gigiyenik xulosalar va boshqa hujjatlar uchun to‘liq javobgar bo‘lish;

suvni saqlash, tashish va yetkazish jarayonida sanitariya va texnik normalarga rioya qilish;

“suv_kerak – Boss” ilovasida suv narxlari, tara narxlari, aktsiyalar va shartlarni to‘g‘ri va aniq ko‘rsatish, o‘zgarishlar yuz berganda ularni o‘z vaqtida yangilab borish;

Mijozlar shikoyatlari va davolarini o‘z kompetentsiyasi doirasida ko‘rib chiqish, kerak bo‘lsa tegishli organlar bilan hamkorlik qilish.

8.3.2. Suv yetkazib beruvchi Boss huquqlari:

“suv_kerak – Boss” ilovasida suv va tara narxlarini, aktsiya va chegirmalarni mustaqil belgilash;

o‘zining Meneger va kurerlarini tanlash, ular bilan o‘zaro munosabatlarni mustaqil ravishda belgilash;

tizim xizmatidan foydalanishni to‘xtatish (ushbu oferta va qonunchilik talablariga rioya qilgan holda)

8.3.3. Suv yetkazib beruvchi Boss, tizim xizmati haqqini (komissiyani) ushbu ofertada ko‘rsatilgan qoidalarga muvofiq to‘lash va kompaniya bilan hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirishga majbur.

8.4. Suv yetkazib beruvchi Meneger va kurerning majburiyatlari

8.4.1. Suv yetkazib beruvchi Meneger:

tizimda ko‘rsatilgan ichki reglamentlar va suv yetkazib beruvchi Boss ko‘rsatmalarini bajarish;

buyurtmalarni to‘g‘ri qabul qilish, kurerlarga taqsimlash, yetkazib berish jarayonini nazorat qilish;

mijozlar bilan muloqotda xushmuomala, aniq va to‘g‘ri axborot berish tamoyillariga rioya qilish.

8.4.2. Suv yetkazib beruvchi kurer:

buyurtmalarni o‘z vaqtida va ehtiyotkorlik bilan yetkazish;

mijoz manzili va buyurtma tafsilotlarini tizimda ko‘rsatilganidek bajarish;

mijoz bilan muloqotda odob-axloq normalariga, qonunchilik va ichki qoidalarga rioya qilish.

8.4.3. Meneger va kurer faoliyati bo‘yicha javobgarlik, suv yetkazib beruvchi Boss zimmasiga yuklatiladi. Kompaniya ularning mehnat munosabatlari va faoliyati uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish beruvchi sifatida javobgar emas.

8.5. Mijozning huquq va majburiyatlari

8.5.1. Mijoz huquqlari:

“suv_kerak” tizimi orqali suvga buyurtma berish, yetkazib berish statusini kuzatish va tizimda nazarda tutilgan boshqa imkoniyatlardan foydalanish;

suv yetkazib beruvchi Boss va kurerdan, sotib olayotgan suv va xizmat to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborot talab qilish;

ushbu oferta va qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda murojaat, shikoyat va takliflar yuborish.

8.5.2. Mijoz majburiyatlari:

ro‘yxatdan o‘tish va buyurtma berishda o‘zining to‘g‘ri va dolzarb malumotlarini (ism, telefon raqam, manzil va h.k.) taqdim etish;

kurerni kelishilgan manzilda va vaqtda qabul qilish, buyurtma uchun to‘lovni belgilangan usulda va o‘z vaqtida amalga oshirish;

tizimdan foydalanishda qonun talablarini, axloqiy normalarni va ushbu oferta shartlarini buzmaslik.

9. Javobgarlik va fors-major

9.1. Umumiy javobgarlik qoidalari

9.1.1. Taraflar ushbu oferta shartlarini buzganlik uchun amaldagi qonunchilikka va mazkur ofertaga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

9.1.2. Kompaniya, umumiy qoida tariqasida, faqat tizim xizmatini ko‘rsatish bilan bog‘liq o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligi yoki bajarishda mehnati bilan yetkazilgan real zarar (real yo‘qotishlar) uchun javobgar bo‘lishi mumkin. Kompaniya yo‘qotilgan foyda uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

9.2. Suv tarkibi, sifati va sertifikatlar bo‘yicha javobgarlik

9.2.1. Suv yetkazib beruvchi Boss sotadigan va yetkazadigan suvning:

kimyoviy va mikrobiologik tarkibi;

sanitariya normalari va gigiyenik standartlarga mosligi;

istemol uchun xavfsizligi;

sertifikatlari, gigiyenik xulosalari, texnik reglamentlarga muvofiqligi;

ishlab chiqaruvchi va mahsulot haqidagi boshqa majburiy marker va malumotlar

uchun to‘liq va mustaqil tarzda javobgar hisoblanadi.

9.2.2. Kompaniya:

suvning tarkibi, sifati va uning istemol uchun yaroqliligi;

suvni saqlash, tashish, qadoqlash va sertifikatlash bilan bog‘liq hech qanday majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi;

suv sifati yoki salomatlikka tasiri bilan bog‘liq har qanday zarar uchun javobgar emas.

Bunday munosabatlar bevosita mijoz va suv yetkazib beruvchi Boss o‘rtasidagi munosabatlar doirasida hal etiladi.

9.2.3. Agar mijoz suv sifati yoki uning salomatlikka tasiri bo‘yicha davo yoki shikoyatga ega bo‘lsa, davoni birinchi navbatda suv yetkazib beruvchi Boss’ga qaratgan holda, qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda tegishli davlat nazorat organlariga murojaat qilish huquqiga ega.

9.3. Tizim ishidagi buzilishlar va texnik cheklovlar

9.3.1. Kompaniya “suv_kerak” tizimining barqaror ishlashini taminlashga intiladi, biroq quyidagi holatlarda tizimning uzluksiz ishlashini kafolatlay olmaydi:

internet-provayderlar, aloqa operatorlari yoki xosting provayderlaridagi nosozliklar;

serverlar va uskunalardagi texnik nosozliklar;

DDoS hujumlar, kiberhujumlar yoki axborot xavfsizligiga oid boshqa tahdidlar;

favqulodda texnik xizmat ko‘rsatish ishlari.

9.3.2. Bunday holatlarda kompaniya tizimni tiklash uchun zarur choralarni ko‘rishga intiladi, ammo bevosita yoki bilvosita yo‘qotilgan foyda, malumotlar yo‘qolishi, yetkazib berishdagi kechikish va shu kabilar uchun javobgar emas, agar bunday zarar kompaniyaning qasddan yoki qo‘pol beetiborligi natijasida kelib chiqmagan bo‘lsa.

9.4. Fors-major holatlari

9.4.1. Taraflar quyidagi holatlar yuz berganda o‘z majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajara olmaslik uchun javobgar bo‘lmaydilar (fors-major):

tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, sel, dovul, qattiq qor yog‘ishi va h.k.);

urush, harbiy harakatlar, terrorizm, ommaviy tartibsizliklar;

epidemiya, pandemiya, karantin cheklovlari;

davlat organlari, mahalliy hokimiyat va boshqa vakolatli tashkilotlarning xizmatni cheklash yoki taqiqlashga olib keluvchi qarorlari;

aloqa, elektr taminoti va transport infratuzilmasiga oid yirik avariyalar va boshqalar.

9.4.2. Fors-major holati yuzaga kelgan Taraf, imkoniyat darajasida, boshqa Taraf(lar)ni bu haqda xabardor qilishi va oqibatlarni kamaytirish choralarini ko‘rishi lozim.

10. Nizolarni hal etish tartibi

10.1. Dastlabki (dosudebniy) tartib

10.1.1. Ushbu ofertadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog‘liq barcha nizo, kelishmovchilik va davolarni taraflar, avvalo, muzokaralar va yozma murojaatlar orqali do‘stona tarzda hal qilishga intiladilar.

10.1.2. Mijoz yoki suv yetkazib beruvchi Boss kompaniyaga quyidagi kanallar orqali davo yoki shikoyat yuborishi mumkin:

elektron pochta: suv_kerak@gmail.com;

Telegram qo‘llab-quvvatlash boti: @suv_kerak_support.

10.1.3. Davo/shikoyatda, imkoniyat darajasida, quyidagi malumotlar ko‘rsatilishi tavsiya etiladi: F.I.Sh. yoki foydalanuvchi ID si, foydalanuvchi turi, kontakt malumotlar, nizo mohiyati, bo‘lgan voqea sanasi, tegishli skrinshot va boshqa isbotlash materiallari.

10.1.4. Kompaniya, umumiy qoida tariqasida, bunday murojaatlarni 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida ko‘rib chiqishga intiladi va natijalari haqida foydalanuvchini xabardor qiladi.

10.2. Sud tartibi

10.2.1. Agar nizoni do‘stona tarzda hal etish imkonsiz bo‘lsa, u holda nizo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, kompaniya ro‘yxatdan o‘tgan joy bo‘yicha vakolatli sudda ko‘rib chiqiladi.

10.2.2. Ushbu ofertaga, uning tuzilishi, amal qilishi, talqini va bekor qilinishiga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi tatbiq etiladi.

11. Yakuniy qoidalar

11.1. Ushbu Oferta Kompaniya tomonidan elon qilingan (masalan, “suv_kerak” Telegram boti, mobil ilovalar yoki rasmiy axborot kanallarida joylashtirilgan) paytdan boshlab kuchga kiradi va foydalanuvchi tomonidan aktsept qilingan paytdan etiboran foydalanuvchi bilan kompaniya o‘rtasida tuzilgan shartnoma sifatida amal qiladi.

11.2. Kompaniya amaldagi qonunchilik, tizim rivoji va boshqa obyektiv sabablarni hisobga olgan holda, ushbu oferta matnini o‘zgartirish yoki yangilash huquqiga ega. Yangilangan redaktsiya oferta joylashtirilgan manzilda (masalan, bot/ilova ichidagi havola orqali) elon qilingan paytdan kuchga kiradi, agar u yerda boshqacha muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa.

11.3. Foydalanuvchining “suv_kerak” tizimidan yangilangan oferta elon qilinganidan keyin foydalanishni davom ettirishi, odatda, ofertaning yangi redaktsiyasi bilan tanishgan va unga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

11.4. Agar ushbu ofertaning ayrim qoidalari amaldagi qonunchilik o‘zgarishi yoki vakolatli organlar qarori sababli haqiqiy emas yoki amal qilinmaydigan deb topilsa, bu holat ofertaning qolgan qismi haqiqiy emas degan manoni anglatmaydi. Qolgan qoidalar o‘z kuchini saqlab qoladi.

11.5. Ushbu oferta maxfiylik siyosati va “suv_kerak” tizimida belgilangan boshqa qoidalar bilan birgalikda qo‘llaniladi. Agar ular o‘rtasida shaxsiy malumotlarni qayta ishlashga oid ziddiyatlar yuzaga kelsa, odatda, foydalanuvchi huquqlarini ko‘proq himoya qiluvchi qoidalar ustuvor deb qaraladi.

Qarshi shahri, 2025 yil